O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI



“TASDIQLAYMAN”
[illegible]
Ro‘yxatga olindi va BD-6010100-1.09
2025-yil

MIKROIQTISODIYOT

FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	1000000	- Xizmatlar
Ta’lim sohasi:	1010000	- Xizmat ko‘rsatish sohasi
Ta’lim yo‘nalishlari:	61010100	- Turizm va mehmondo‘stlik (masofaviy)

Samarqand – 2025

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	ECTS - Kreditlar
MIK1204	2025-2026	2	4
Fan/modul turi	**Ta’lim tili**		**Haftadagi dars soatlari**
Majburiy	O‘zbek		3

	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1	**Mikroiqtisodiyot**	48	72	120

2

I. Fanning mazmuni

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarga asosiy mikroiqtisodiyotning nazariy asoslarini, asosiy mikroiqtisodiy tamoyillar, taklif va talab tahlili, xarajatlar, ishlab chiqarish, soliqlar, monopoliyalar, iste'molchilar, firmalar va bozorlar, iqtisodiy qarorlar qabul qilish jarayoni, resurslarni taqsimlash va bozor mexanizmlarini tushunish, mikroiqtisodiyot iste'molchilarning va ishlab chiqaruvchilarning xatti-harakatlari, ularning iqtisodiy qarorlarini qanday qilib shakllantirish va bozorlar ishlash jarayonlarini o'rgatishdan iborat.

Fanning vazifasi - Talabalarga mikroiqtisodiyotning asl mazmun mohiyatini, firmalar resurslarini samarali ishlatish usullarini, ishlab chiqarish jarayonlarni tashkil etishni , bozorlarning tuzilishi, raqobat sharoitida firmalarning xatti-harakatlari, monopoliyalar va oligopoliya kabi bozor tuzilmalari va ularning iqtisodiyotga ta’sirini va iqtisodiyotning asosiy tamoyillarini o‘rgatish va tahlil qilishdan iborat.

II. Asosiy qism (amaliy mashg‘ulotlar)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

O‘qish moduli

1 - mavzu. Mikroiqtisodiyot fanining mazmuni, predmeti, o‘rganish usullari.

“Mikroiqtisodiyot” fanining predmeti va vazifalari. Mikro va makroiqtisodiyot tushunchalari. Bozor, uning iqtisodiy mohiyati va vazifalari.

2 - mavzu. Iqtisodiy bazis tushunchalar.

Iqtisodiy ehtiyoj, ne’mat,va resurs tushunchalari. Iqtisodiyotning bosh muammosi: ehtiyojlarning cheksizligi va resurslarning cheklanganligi. Iqtisodiy tanlov va muqobil xarajatlar. Ishlab chiqarish imkoniyatlari va mahsulotning optimal tarkibi. Resurslar va ne’matlarni taqsimlashning bozor mexanizmi.

3 - mavzu. Talab, Taklif va Bozor muvozanati.

Bozor mexanizmi. Narxlar shakllanishi. Bozorlar va raqobat. Talab va Taklif tushunchalari.

4 - mavzu. Firma va ularning tashkiliy-iqtisodiy asoslari.

Firmalar haqida umumiy tushuncha. Firma tushunchasi va uning turkumlanishi. Firmalar va uning tashkiliy shallari. Xususiy mulk egaligidagi firmalar.

5 - mavzu. Ishlab chiqarish nazariyasi.

Ishlab chiqarish tushunchasi va ishlab chiqarish funksiyasi. Izokvantalar. Izokosta. Firmaning qisqa va uzoq muddatli oraliqdagi faoliyati. Qisqa va uzoq muddatli ishlab chiqarish.

6 - mavzu. Raqobat va yakkahokimlik.

Raqobat tushunchasi. Raqobatlashuvchi firmaning daromadi. Sof monopoliya va bozor turlari. Monopoliya. Monopsoniya.Oligopoliya. Narxlar jangi.

7 - mavzu. Oligopoliya sharoitida firmalar faoliyati.

Bir nechta sotuvchili bozorlar. Oligopoliya uchun muvozanat. Oligopoliyaning bozor natijalariga ta’siri.

8 - mavzu. Ijtimoiy ne’matlar va umumiy resurslar.

Mahsulotning turli xil turlari. Ommaviy (umumiy foydalanishdagi) tovarlar. Umumiy resurslar. Noyob ne’matlar tushunchasi.

9 - mavzu. Monopolistik raqobatlashgan bozor.

Monopoliya va mukammal raqobat. Raqobatlashgan monopol bozori. Monopol raqobat va mukammal raqobat. Monopolistik raqobat va jamiyat farovonligi.

10 - mavzu. Tashqi ta’sirlar va davlat siyosati.

Soliq, subsidiya,dotatsiya tushunchalari va ularning samaradorligi. Tashqi ta’sirlar va bozor samarasizligi. Salbiy tashqi ta’sirlar. Tashqi ta’sirlarga qaratilgan davlat siyosati.

11 - mavzu. Iqtisodiy resurslar va ularni taqsimlash.

Ishchi kuchi va kapital. Ishlab chiqarish omillari. Resurslar narxlari va iqtisodiy tizim.

12 - mavzu. Xarajat va foyda.

Ishlab chiqarish xarajatlari. Qisqa va uzoq muddatli xarajatlar. O‘zgaruvchan va doimiy xarajatlar. Marginal xarajatlar va daromadlar. Foyda turlari. Normal foyda. Iqtisodiy foyda. Ijtimoiy foyda. Chegraviy foyda. Umumiy foyda.

II.II.Seminar mashg‘ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

1. Mikroiqtisodiyot fanining predmeti, uslublari va funksiyalari.
2. Iqtisodiy basis tushunchalar.
3. Bozor mexanizmi va narx shakllanishi. Talab va taklif qonunlari.
4. Firma tushunchasi va uning turkumlanishi.
5. Ishlab chiqarish nazariyasi. Ishlab chiqarish omillari va ularning turlari.
6. Monopoliya, monopsoniya va oligopoliya tushunchasi
7. Oligopoliyaning bozor natijalariga ta’siri.
8. Ijtimoiy ne’matlar va umumiy resurslar.
9. Nomukammal raqobat bozori va monopolistning narx belgilash strategiyasi.
10. Tashqi ta’sirlar va davlatning iqtisodiyotga aralashuvi.
11. Ishlab chiqarish omillari va turlari.
12. Xarajatlar nazariyasi va ularning turlari.

III. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. **Mikroqtisodiyotda talab va taklif haqida yozma hisobot tayyorlash.**
   Bajarilish tartibi: Iqtisodiyotda talab va taklif tushunchasining o'ziga xos xususiyatlarini sanab o'tish. Talabga ta'sir etuvchi asosiy omillar va taklifga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash.
2. **Mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot tushunchalari o'rtasidagi farqlar mavzusida taqdimot tayyorlash.**
   Bajarilish tartibi: Mikroiqtisodiyot haqida tushuncha va uning subyektlari. Makroiqtisodiyot nimani o'rganadi va uning asosiy ko'rsatkichlari. Mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyotning o'zaro bog'liqligi aks ettirilgan taqdimot tayyorlash.
3. **Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish.**
   Bajarilish tartibi: O'zbekistondagi inflatsiya, ish bilan ta'minlash darajasi va yalpi ichki mahsulot o'sish sur'atlari haqidagi oxirgi ma'lumotlarni tahlil qilish, ularning iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholash.
4. **Starap yaratish va uni iqtisodiy tahlil qilish.**
   Bajarilish tartibi: Yangi biznes yoki startap g'oyasini ishlab chiqarish. Bozorni tahlil qilish (maqsadli auditoriya,raqobatchilar). Mahsulot yoki xizmatning iqtisodiy potensialini baholash. Taxminiy boshlang'ich sarmoya va operatsion xarajatlarni aniqlash. Startap uchun marketing va sotish strategiyalarini ishlab chiqarish.
5. **Ishlab chiqarish nazariyasi: ishlab chiqarish funksiyasi va samaradorligi haqida referat tayyorlash.**
   Bajarilishi: Ishlab chiqarish haqida umumiy ma'lumot. Ishlab chiqarish jarayonining asosiy bosqichlari. Ishlab chiqarish omillari. Mehnat va kapital unumdorligi.
6. **Mikroiqtisodiyotda raqobat turlari mavzusida slayd tayyorlash.**
   Bajarilishi: Raqobatning iqtisodiy jarayondagi o'rni. Raqobat tushunchasi va uning shakllanishi. Bozordagi ishtirokchilar o'rtasidagi raqobatning asosiy sabablari. Raqobatning asosiy funksiylari haqida ma'lumotlarni to'plash va taqdim etish.
7. **Davlatning mikroiqtisodiy jarayonlardagi rolini o'rganish va misollar orqali hisobot tayyorlash.**
   Bajarilishi: Mikroiqtisodiy darajadagi asosiy jarayonlar. Bozor ishtirokchilari uchun qonuniy tartiblar. Anti-monopoliya siyosati.
8. **Tashqi ta'sirlar va bozor muvaffaqqiyatsizliklarini misollar orqaloi o 'rganish va tahlil etish.**
   Bajarilishi: Tashqi ta'sirlar tushunchasi. Bozor muvaffaqqiyatsizligi haqida. Tashqi ta'sirlar bozor narxini noto'g'ri aks ettirishi. Ijtimoiy foyda va xususiy foyda o'rtasidagi farqlar.
9. **Ishlab chiqarish xarajatlari: doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar mavzusida taqdimot tayyorlash.**
   Bajarilishi: Ishlab chiqarish xarajatlari tushunchasi. Umumiy xarajatlar. Aralash xarajatlar haqida tushuncha. Doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarning farqlari.
10. **Monopsoniya va uning mehnat bozoriga ta'siri haqida hisobot va prezentatsiya tayyorlash.**
    Bajarilishi: Monopsoniya tushunchasi va uning mehnat bozoriga ta'sirini tahlil qilish. Monopsoniya holatidagi bozor misollarini keltirish.
11. **Iqtisodiyotda ishchi kuchi, kapial tushunchasi va ularning iqtisodiyotda tutgan o'rni mavzusida tadqiqot olib borish.**
    Bajarilishi: Ishchi kuchi va kapitalning iqtisodiyotdagi o'rnini aniqlash. Ischi kuchi turlari. Kapital turlari. Ishchi kuchi va kapitalning birgalikdagi ta'siri.
12. **Real iqtisodiy voqealarni tahlil qilish.**
    Bajarilishi: COVID-19 pandemiyasining O'zbekistondagi kichik va o'rta bizneslarga ta'siri haqida iqtisodiy tahlil olib borish. Qanday iqtisodiy o'zgarishlar yuz bergani, uning ijobiy va salbiy ta'sirlarini aniqlagan holda hisobot tayyorlash.
    Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular kafedra tomonidan tayyorlangan uslubiy ko'rsatma asosida bajariladi.

3	**IV. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: -iqtisodiyot muammolariga qanday yondashish,iqtisodiyot bo'limlarini tushunadi, mikroiqtisodiyotning asosiy nazariy tamoyillari, bozor mexanizmlari, firmalarning iqtisodiy faoliyati, talab va taklif, narx va ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini tahlil qilishni va iqtisodiy jarayonlarni tushunish va prognozlash qobiliyati shakllanadi; -bozorlar haqida, tovar va xizmatlar bozorining ishlashi, shaxslar va mamlakatlar o'rtasidagi savdo asoslari, monopoliyalar, raqobat, narx belgilash, resurslarni samarali taqsimlash, ishlab chiqarish imkoniyatlari va ishlab chiqarish xarajatlarini tahlil qilish haqidagi tushunchalarga ega bo'ladi; - korxona va kompaniyalarning iqtisodiy faoliyati, ishlab chiqarish va marketing strategiyalarini, firma uchun turli daromad turlarini va turli xarajatlarni hisoblash, mukammal raqobat tushunchalari haqida, turli iqtisodiy masalalarni hal qilishda analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.
4	**V. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • videokonferensiyalar; • taqdimotlar tayyorlash; • tezkor savol-javoblar o'tkazish; • guruh bo'lib ishlash; • mavzularga doir Moodle, Quizlet va boshqa platformalarda test ishlash; • online guruhlarda loyilalar yaratish; • mantiqiy fikrlash
5	**VI. Kreditlarni olish uchun talablar:** Joriy darslarda faol va to'liq qatnashish, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarish, mustaqil ta'lim topshiriqlarini a'lo darajada bajarish va hisobot topshirish, yakuniy imtihonni muvaffaqiyatli topshirish.

Asosiy adabiyotlar

1. Bakiyeva I.A., Xadjayev X.S., Muxitdinova M.Z., Fayziyev Sh.Sh. " Mikroiqtisodiyot". O'quv qo'llanma. – Toshkent:-O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2017. - 436 b.
2. Salimov B.T., Yusupov B.B., Salimov B.B. "Mikroiqtisodiyot". Darslik.-T.: Iqtisodiyot, 2019. - 366 b.
3. Shakarov A.B., Xolboyev U.X. "Mikroiqtisodiyot". Darslik. – T.: "Iqtisod-Moliya ", 2020.- 228 b.
4. Cho'liyev S.R., Baqoyev H.N., "Mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot". O'quv qo'llanma. – Navoiy: NAVOIY, 2023.-164 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

5. Макконнелл К.Р., Брью С.Л., Флинн Ш.М. Экономикс: принципы, проблемы и политика: перю 17-го англ. изд. -М.: ИНФРА-М, 2009.- XXVIII, 916 с.
6. Robert S. Pindyck, Daniel L. Rubinfeld. Microeconomics 8th International Edition. Pearson education, Inc., 2013. 771.
7. Mustafakulov Sh.I., Raximberdiyev O.A., M.SH. Egamberdiyeva M.Sh. "Iqtisodiy atamalarning izohli lug'ati". Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot - matbaa uyi, 2019. - 489 b.
8. Xolmatov N.B., Imomova N.A. "Makro va Mikroiqtisodiyot". O'quv qo'llanma. -T.: "Tafakkur avlodi", 2020.-268 b.

Axborot manbaalari

9. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
10. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
11. www.mfer.uz – O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo Vazirligining rasmiy sayti.
12. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi sayti.
13. www.mf.uz -O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy sayti.
14. www.custom.uz -O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasining rasmiy sayti.
15. www.cer.uz – Iqtisodiy tadqiqotlar Markazining rasmiy sayti.
16. https://econ/files/documents/syllabi/2022/autumn/syllabus_econ_300_e.pdf

7 Samarqand davlat chet tillar instituti tomonidan ishlab chiqilgan va institut Kengashining 2025-yil "____" _____ dagi "____"-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

8 **Fan/modul uchun mas'ullar:**

R.I. Pardayev - SamDCHTI, "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kafedrasi assistent-o'qituvchisi.

9 **Taqrizchilar:**

Z.I. Saliyeva- SamDCHTI, "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kafedrasi professori, f.fn.

A. Odilov – "Ipak Yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti "Turizm menejmenti" kafedrasi mudiri, PhD.